

**O‘RTA OSIYO XALQLARI TARIXINING RUS VA YEVIROPA MANBALARIDA  
AKS ETISHI (XVI-XIX ASRLAR)****Maxmaraimova Parvina***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix yo‘nalishi talabasi*[parvinamaxmaraimoiva@gmail.com](mailto:parvinamaxmaraimoiva@gmail.com)

Tel: +998990711778

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola O‘rta Osiyo xalqlari tarixining XVI–XIX asrlardagi rivojlanishi va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini rus va Yevropa manbalarida aks etishini tahlil qiladi. Tadqiqotda rus va yevropalik sayyohlar, diplomatlar, tarixchilar va savdogarlarning asarlari asosiy manba sifatida ko‘rib chiqilgan. Maqola manbalardagi etnoslar, siyosiy tuzilmalar, iqtisodiy munosabatlar va madaniy an‘analarning tasvirlanishidagi xususiyatlarni solishtiradi, shuningdek, markaziy Osiyo haqidagi tasavvurlar va stereotiplarning shakllanishini o‘rganadi. Natijalar rus va yevropa yozma manbalarida O‘rta Osiyo tarixining ko‘plab jihatlari, jumladan, ijtimoiy-siyosiy tuzilma, savdo aloqalari va diniy-ma‘naviy hayotga oid ma‘lumotlarning turlicha ifodalanganini ko‘rsatadi. Maqola tarixiy tadqiqotlar uchun manbalarni tanlashda kritik yondashuvning ahamiyatini va O‘rta Osiyo tarixini global kontekstda tushunish zarurligini ta‘kidlaydi.*

**Kalit so‘zlar:** *O‘rta Osiyo, tarix, XVI–XIX asrlar, rus manbalari, yevropa manbalari, etnografiya, siyosiy tuzilma, madaniyat, savdo aloqalari, tarixiy tasavvur*

**ASOSIY QISM**

Buyuk geografik kashfiyotlardan so‘ng Ipak yo‘li o‘z ahamiyatini yo‘qotganligi sababli, O‘rta Osiyo jahon xo‘jaligi savdosidan chetga tushib qoldi. Lekin bundan qat‘iy nazar Vatanimizni Yevropa mamlakatlari bilan savdo diplomatik aloqalari batamom to‘xtab qolmadi. XVI asrdan boshlab O‘rta Osiyoning Yevropa mamlakatlari jumladan Angliya va Rossiya bilan o‘zaro savdo va elchilik aloqalari tobora kuchayib bordi (To‘g‘ri bu yirik davlatlarning O‘rta Osiyo xonliklariga qiziqishining boshqa tamonlari ham bor edi.). Xususan, Qozon va Astraxan xonliklari Rossiya tomonidan bosib olingandan so‘ng bunday aloqalar rus davlati bilan yanada jonlanib ketdi. O‘rta Osiyoga muntazam ravishda rus elchilari, savdogarlari va sayyohlari tashrif buyurur edilar. Rus elchilari o‘z hukumatlarining talabiga muvofiq, O‘rta Osiyo xonliklarining ichki ahvoli va xalqaro aloqalari, axolisi, xo‘jaligi, xarbiy salohiyati xususida imkon qadar batafsilroq ma‘lumotlar berishga xarakat qilar edilar. Bora-bora yurtimizga Rossiyadan kelayotgan odamlar doirasi kengayib bordi. Ularning qatoriga injenerlar, vrachlar, olimlar va boshqalar qo‘shilib bordilar. Natijada rus

mualliflarining O‘rta Osiyo xususida to‘plangan materiallarining ko‘lami kengaydi. O‘rta Osiyo xonliklari axolisiga doir ma‘lumotlarni bu erga tashrif buyurgan yevropalik mualliflar xam yiqqanlar. Ular orasida ayniqsa ingliz sayyoxi Antonii Jenkinson hamda vengar olimi va sayyohi Xerman Vamberi shuningdek ingliz zobiti Aleksandr Byorns, A. Middendorf, Yujen Skayler, Genri Lansdellar yozib qoldirgan ma‘lumotlar e‘tiborga sazovordir.

#### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Rus va Yevropa manbalarida O‘rta Osiyo xalqlari tarixi turlicha aks etganligi aniqlandi. Sayyohlar, diplomatlar va savdogarlarning yozuvlarida asosan siyosiy voqealar, ijtimoiy tuzilmalar va savdo aloqalari ta‘kidlangan, biroq etnik va madaniy jihatlar ayrim hollarda stereotipik yoki soddalashtirilgan ko‘rinishda berilgan. Masalan, rus manbalarida O‘rta Osiyo ijtimoiy tuzilmasi ko‘pincha harbiy va ma‘muriy nuqtai nazardan tahlil qilinsa, Yevropa manbalarida bu hududning geografik joylashuvi, savdo marshrutlari va “eksotik” obrazlari asosiy e‘tiborda bo‘lgan. Shuningdek, manbalarni solishtirish orqali O‘rta Osiyo tarixiga oid ma‘lumotlarning bir qismi faqat chet el yozuvlarida mavjudligi, mahalliy manbalar bilan taqqoslaganda ayrim tafsilotlarning noto‘g‘ri yoki qisman ifodalanganini ko‘rsatadi. Bu esa tarixshunoslikda manbalarni tanlash va ularni kritik tahlil qilish zaruratini kuchaytiradi. Natijada, maqola O‘rta Osiyo tarixini global kontekstda tushunish va turli manbalar orqali obyektiv tasavvur hosil qilish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, manbalardagi qarama-qarshi yoki mos kelmaydigan ma‘lumotlar tarixiy tadqiqotlar uchun yangi savollar va yo‘nalishlarni ochadi. Bu esa manbalarni tahlil qilgan holatda holislik bilan yozdashuvga olib keladi.

XVI-XIX asrlarda Xiva va Qo‘qon xonligida hamda Buxoro amirligida kechgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot masalalarini yoritishda ushbu davrlarga ya‘ni xonliklar davri tarixiga oid birlamchi manbalar jumladan Rossiya elchilari hamda sayyohlarining esdaliklarini tanqidiy ravishda o‘rganish va tegishli ilmiy xulosa chiqarish muhim ahamiyatga ega. Tarixiy manbalarni o‘rganmasdan turib, bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealar to‘g‘risida to‘g‘ri ilmiy xulosa chiqarish mumkin emas. Faqat asl manbalargina o‘sha davr voqealari tarixidan chuqur anglash imkonini beradi.

Shuni e‘tiborga olganda Rossiyalik elchi va sayyohlarning esdalik hamda asarlari ushbu davr tarixiga oid muhim manbalar sirasiga kiradi. Chunki, sayyoh va elchilar o‘zlari ko‘rgan, so‘rab surishtirgan xodisa va voqealarni tafsilotlari bilan boricha bayon qiladilar. Rossiyalik tarixchilar ham o‘z asarlarini shu bois ko‘proq xonliklarga tashrif buyurgan sayyohlar va elchilarning axborotlari, esdaliklariga tayangan xolda yozganlar.

XV asr oxiri XVII asr o‘rtalarida amalg oshirilgan “Buyuk geografik kashfiyotlar”dan so‘ng “Buyuk Ipak yo‘li” o‘z ahamiyatini yo‘qotganligi sababli, O‘rta Osiyo jahon xo‘jaligi savdosidan chetga tushib qoldi. Biroq bundan qa‘tiy nazar yurtimizning Yevropa va jahon

mamlakatlari bilan savdo diplomatik aloqalari batamom to‘xtab qolmadi. XVI asrdan boshlab O‘rta Osiyo va Rossiya o‘rtasidagi har tamonlama aloqalar tobora kuchayib bordi. Ayniqsa, Qo‘qon va Astraxan xonliklarining Rossiya tomonidan bosib olinganidan so‘ng bunday aloqalar yanada jonlanib ketdi. O‘rta Osiyo xonliklariga muntazam ravishda rus elchilari, savdogarlari va sayyohlari tashrif buyurar edilar. Rus elchi va sayyohlari o‘z xukumatlarining talabiga muvofiq, O‘rta Osiyo xonliklarining ichki ahvoli va xalqaro aloqalari, axolisi, xo‘jaligi, harbiy salohiyati xususida imkon qadar batafsilroq ma‘lumotlar berishga xarakat qilar edilar. Bora-bora yurtimizga Rossiyadan kelayotgan odamlar

doirasi kengayib boradi. Ularning qatoriga injinerlar, vrachlar, olimlar, harbiylar va boshqalar qo‘shilib bordilar. Natijada rus mualliflarining O‘rta Osiyo jumladan xonliklar xususida to‘plagan materiallarining ko‘lami kengayib bordi. Ularda Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklarining davlat tizimi, shaharlari, xo‘jaligi, axolining mashg‘ulotlari va turmush tarzi xususida boy ma‘lumotlar bor. SHu bilan birga mazkur xotira va xisobotlar mualliflari ba‘zi bir xollarda bir yoqlamalikka va subektivlik singari nuqsonlarga yo‘l qo‘yishlarini ham ta‘kidlab o‘tish zarur. Shu bois ham ulardan biz yuqorida qayd etib o‘tganimizdek tanqidiy, maxalliy materiallar bilan solishtirgan xolda foydalanish joizdir.

#### XULOSA

Xulosa qilib shuni aytib o‘tish kerakki, xonliklar xususan Xiva, Qo‘qon xonliklari hamda Buxoro amirligi tarixiga oid yevropalik hamda rus sayyoh, savdogar va elchilarining esdaliklari muhim manbalar sirasiga kiradi. Ulardan tanqidiy ruhda, sinchkovlik bilan foydalanish davlatchiligimiz tarixida muhim iz qoldirgan Xiva va Qo‘qon xonliklari tarixini yoritib berishda katta o‘rin tutadi. Bu manbalar yordamida tariximizni faqatgina birtomonlama emas balki har tomonlama o‘rgangan holda xolislik bilan baholashimizda katta ahamiyat kasb etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azamat Ziyov. O‘zbek davlatchiligi tarixi T., «Sharq» 2000.
2. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar T., «O‘qituvchi» 1994.
3. Abulg‘oziy Bahodirxon. Shajarai turk Nashrga tayyorlovchilar. Q. Munirov, Q. Mahmudov. Toshkent, 1992.
4. Bobobekov X.N. Qo‘qon tarixi T., «Fan» 1996.
5. Bababekov X.N. Istoriya Kakanda. T., «Fan» 2006.
6. Vohidov Sh.X. «Zvaniya i doljnost v Kakandskom xanstve i Buxarskom emirate» T., 1996 Воҳидов Ш. Қўқон хонлиги, Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар Т., 199